



Developing pedagogical abilities in primary school teachers as a factor in the manifestation of professional identity

Dilmurod ABDUSAMIYEV¹

Turan International University

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

25 February 2025

Keywords:

primary school teachers,
professional identity,
pedagogical abilities,
innovative technologies,
reflective skills,
self-assessment,
quality of education,
professional development.

ABSTRACT

This article analyzes the intrinsic connection between primary school teachers' professional identification and their pedagogical abilities from a scientific and theoretical perspective. The study examines innovative methods and technologies for developing pedagogical abilities, including reflective practice, self-assessment, and modern educational approaches aimed at fostering professional competencies. Furthermore, the article provides a scientific basis for the developmental dynamics of pedagogical abilities, the relationship between the process of professional identification and individual and social factors, as well as their impact on the quality of education and teachers' personal professional growth. The research findings offer important scientific and practical recommendations designed to enhance the effectiveness of pedagogical activities.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1-pp214-220>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish kasbiy identifikatsiyaning namoyon bo'lish omili sifatida

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

boshlang'ich sinf
o'qituvchilari,
kasbiy identifikatsiya,
pedagogik qobiliyatlar,

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasi va pedagogik qobiliyatlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Maqolada pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning innovatsion metod

¹ PhD, Associate Professor, Turan International University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences.
E-mail: abdusamiyev1993@bk.ru

innovatsion texnologiyalar,
refleksiv ko'nikmalar,
o'z-o'zini baholash,
ta'lim sifati,
kasbiy rivojlanish.

va texnologiyalari, jumladan, refleksiv amaliyot, o'z-o'zini baholash, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim yondashuvlari tahlil qilinadi.. Shuningdek, maqolada pedagogik qobiliyatlarning rivojlanish dinamikasi, kasbiy identifikatsiya jarayonining individual va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi hamda ularning ta'lim sifati va o'qituvchining shaxsiy kasbiy o'sishiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Развитие педагогических способностей учителей начальных классов как форма проявления профессиональной идентичности

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

педагогические способности, инновационные технологии, рефлексивные навыки, самооценка, качество образования, профессиональное развитие.

В статье на научно-теоретической основе анализируется неразрывная связь между профессиональной идентификацией учителей начальных классов и развитием их педагогических способностей. Рассматриваются инновационные методы и технологии, способствующие совершенствованию педагогического мастерства, включая рефлексивную практику, самооценку и современные образовательные подходы, направленные на формирование профессиональных компетенций. Кроме того, научно обоснована динамика развития педагогических способностей, а также влияние индивидуальных и социальных факторов на процесс профессиональной идентификации. Особое внимание уделено их роли в повышении качества образования и личностно-профессиональном росте учителя. Результаты исследования включают ценные научно-практические рекомендации, направленные на повышение эффективности педагогической деятельности.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini isloh qilish va ta'lim sifatini oshirish masalasi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Boshlang'ich ta'lim bosqichi ta'lim jarayonining poydevori hisoblanib, ushbu bosqichda o'qituvchining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlari nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi, balki o'quvchilarning intellektual, axloqiy va ijodiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur holatni bevosita kuzatib, chuqur tahlil qilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustda xalq ta'limi, oliy ta'lim xodimlari bilan bo'lgan muloqotda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, "...bugungi kunda ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan

o'qituvchilarning obro'sini ko'tarish, shu bilan bir qatorda bugun o'qituvchilarning o'zlari ham ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim" [1], degan bir qator fikrlarni bildirib o'tdi.

Pedagogik qobiliyatlar o'qituvchining kasbiy identifikatsiyasining muhim tarkibiy qismidir. Kasbiy identifikatsiya o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatiga nisbatan mas'uliyatni his qilishi, o'z shaxsiy va professional o'sish imkoniyatlarini anglash hamda ularni hayotga tatbiq etish jarayonini ifodalaydi. Shu boisdan, pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish nafaqat o'qituvchining samarali faoliyat yuritishi, balki uning kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlash uchun ham muhim omil hisoblanadi.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish kasbiy identifikatsiyaning namoyon bo'lish omili sifatida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan metodlar, texnologiyalar va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish va kasbiy identifikatsiya jarayonlarini o'rganish bo'yicha qator yondashuvlarni ochib beradi. Quyida mavzuga oid muhim manbalar va ular asosida keltirilgan tahlillar jamlangan.

S.Shuhratov o'zining pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari borasida olib borgan tadqiqot ishlarida pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan. Muallif boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish uchun trening va seminarlarning samaradorligini qayd etadi [2].

U o'qituvchilarda liderlik qobiliyatini shakllantirish, sinfni boshqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, hamkorlikni rivojlantirish kabi masalalarni asosiy deb biladi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan treninglar va amaliy mashg'ulotlarni ta'lim samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko'rsatadi.

Bu borada tadqiqotchi M. Xudoyberdiyeva quyidagicha ta'kidlaydi, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiya shakllanishining psixologik va pedagogik jihatlari tahlil qilingan [3]. Muallif kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishda reflektiv amaliyotning o'rnini alohida ta'kidlagan.

Xudoyberdiyeva kasbiy identifikatsiya jarayonida psixologik omillarga katta e'tibor qaratadi. Uning fikricha, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z kasbiga nisbatan ijodiy yondashuvni shakllantirishi, faoliyatini chuqur tahlil qilishi va reflektiv ko'nikmalarni rivojlantirishi lozim. Muallif pedagogik mahoratni oshirishning uzluksiz jarayon ekanligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, xorijiy olimlarning tadqiqot ishlarida ham o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatlari, kasbiy faoliyatda ularni rivojlantirish shart-sharoitlari, ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining holati borasida ilmiy qarashlar keltirilgan.

Jumladan, Jahon banki hisobotlari (World Bank, 2021)da o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash xalqaro tajribalari o'rganilgan. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda masofaviy ta'lim texnologiyalari, vebinarlar va xalqaro treninglar samarali vosita bo'lib xizmat qiladi .

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, maqola aynan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasiga qaratilgan bo'lib, ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli yondashuvni talab qiladigan o'ziga xosliklarni ochib beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qobiliyat bu har bir shaxsning o'ziga xos psixologik xususiyati bo'lib, u shaxsning hayoti davomida o'z aksini topadi. Har bir shaxsda bir qancha qobiliyatlar mavjud bo'lib, u insonning ish faoliyati va ijtimoiy hayoti davomida shakllanib o'zini oshkor etadi. Insonning kamol topib hayotda o'z o'rnini topishi va kasb yoki hunar tanlashida muhim ahamiyat kasb etadigan omillardan biri sanaladi. Pedagogik qobiliyat – bu o'qituvchi uchun zarur bo'lgan xususiyat hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish nafaqat ta'lim sifati, balki o'quvchilarni intellektual va axloqiy shakllantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon o'qituvchining kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlashda ham muhim o'rin tutadi. Pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning birinchi va asosiy yo'li refleksiv yondashuvdir. Bu o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyatini shakllantiradi. Refleksiya o'qituvchiga o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Misol uchun, har bir darsdan keyin o'z faoliyatini yozib borish, o'z-o'zini tahlil qilish va muammolarni bartaraf etish rejasini ishlab chiqish samarali natija beradi.

Ikkinchi muhim yo'l innovatsion texnologiyalardan foydalanishdir. Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish darslarni yanada qiziqarli va samarali o'tkazishga yordam beradi. Masalan, elektron ta'lim platformalari, interaktiv o'yinlar va masofaviy o'qitish vositalaridan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi. Bu jarayonda "Kahoot" yoki "Quiz" kabi interaktiv test vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish uchun maxsus treninglar va seminarlar tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu treninglar doirasida mahalliy va xalqaro ekspertlar tomonidan yangi pedagogik metodlar o'rgatiladi. O'qituvchilar o'z kasbiy mahoratini rivojlantiruvchi treninglarga muntazam qatnashib, zamonaviy ta'lim uslublari bilan tanishadi.

Akmeologik yondashuvni joriy etish ham pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali yo'llaridan biridir. Ushbu yondashuv o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishini uzluksiz jarayon sifatida tashkil qilishni ko'zda tutadi. Akmeologik treninglar va shaxsiy rivojlanish rejalari o'qituvchilarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishida ko'mak beradi.

Bundan tashqari, mentorlik va tajriba almashish jarayonlari orqali yosh o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash muhimdir. Tajribali o'qituvchilar yosh pedagoglarga o'z bilim va ko'nikmalarini o'rgatish orqali ularning kasbiy qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Qo'shma darslar va kuzatuv asosida o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashuvi tashkil qilinadi.

Empatiya va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish ham boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun muhimdir. O'quvchilar bilan samimiy va ijobiy aloqalar o'rnatish ularning darslarga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, psixologik treninglar va kommunikatsiya mashg'ulotlari orqali o'qituvchilarning muloqot qobiliyatlari yaxshilanadi.

Ijodkorlikni rag'batlantirish pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning yana bir yo'nalishidir. Bu jarayonda o'qituvchilar ijodiy tanlovlar va dars ishlanmalari bo'yicha musobaqalarda ishtirok etib, o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, "Eng innovatsion dars ishlanmasi" tanlovlari orqali o'qituvchilar o'z ijodiy yondashuvlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan barcha sa'y-harakatlar ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish, o'qituvchilarning rivojlanishini ta'minlash va umuman olganda, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

1. Pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning birinchi va asosiy yo'li refleksiv yondashuvdir. Bu o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyatini shakllantiradi. Refleksiya o'qituvchiga o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Misol uchun, har bir darsdan keyin o'z faoliyatini yozib borish, o'z-o'zini tahlil qilish va muammolarni bartaraf etish rejasini ishlab chiqish samarali natija beradi.

2. Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish darslarni yanada qiziqarli va samarali o'tkazishga yordam beradi. Masalan, elektron ta'lim platformalari, interaktiv o'yinlar va masofaviy o'qitish vositalaridan foydalanish o'qituvchilarning faolligini oshiradi. Bu jarayonda "Kahoot" yoki "Quizizz" kabi interaktiv test vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish uchun maxsus treninglar va seminarlar tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu treninglar doirasida mahalliy va xalqaro ekspertlar tomonidan yangi pedagogik metodlar o'rgatiladi. O'qituvchilar o'z kasbiy mahoratini rivojlantiruvchi treninglarga muntazam qatnashib, zamonaviy ta'lim uslublari bilan tanishadi.

3. Akmeologik yondashuvni joriy etish ham pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali yo'llaridan biridir. Ushbu yondashuv o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishini uzluksiz jarayon sifatida tashkil qilishni ko'zda tutadi. Akmeologik treninglar va shaxsiy rivojlanish rejalari o'qituvchilarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishida ko'mak beradi.

4. Bundan tashqari, mentorlik va tajriba almashish jarayonlari orqali yosh o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash muhimdir. Tajribali o'qituvchilar yosh pedagoglarga o'z bilim va ko'nikmalarini o'rgatish orqali ularning kasbiy qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Qo'shma darslar va kuzatuv asosida o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashuvi tashkil qilinadi.

5. Empatiya va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish ham boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun muhimdir. O'qituvchilar bilan samimiy va ijobiy aloqalar o'rnatish ularning darslarga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, psixologik treninglar va kommunikatsiya mashg'ulotlari orqali o'qituvchilarning muloqot qobiliyatlari yaxshilanadi.

6. Ijodkorlikni rag'batlantirish pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning yana bir yo'nalishidir. Bu jarayonda o'qituvchilar ijodiy tanlovlar va dars ishlanmalari bo'yicha musobaqalarda ishtirok etib, o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, "Eng innovatsion dars ishlanmasi" tanlovlari orqali o'qituvchilar o'z ijodiy yondashuvlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Keltirilgan yo'llar orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasi sezilarli darajada rivojlanadi. Refleksiya orqali o'zining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilgan o'qituvchi o'z ustida ishlashga motivatsiya topadi. Innovatsion texnologiyalarni

qo'llash, o'quvchilar bilan samarali aloqalarni o'rnatib, darslar qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Trening va seminarlar orqali o'qituvchilar zamonaviy ta'lim usullariga ega bo'lib, ularni dars jarayonida muvaffaqiyatli qo'llashadi. Akmeologik yondashuv esa kasbiy mahoratning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi. Mentorlik va tajriba almashish orqali yosh o'qituvchilar tajribali pedagoglardan bilim olib, o'z qobiliyatlarini mustahkamlaydilar. Shu bilan birga, empatiya va kommunikatsiya ko'nikmalarining rivojlanishi o'quvchilar bilan ijobiy munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi, bu esa ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishiga xizmat qiladi. Ijodkorlikni rivojlantirish esa o'qituvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va o'ziga xos pedagogik uslublarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan barcha sa'y-harakatlar ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish, o'quvchilarning rivojlanishini ta'minlash va umuman olganda, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatlari, xususan, didaktik, kommunikativ va psixologik ko'nikmalar ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishida katta ahamiyatga ega. Kasbiy identifikatsiya, ya'ni o'qituvchining o'zini kasbiga bo'lgan munosabati va uning professionallik darajasi o'zgarishi, o'qituvchining pedagogik faoliyatiga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi va muvaffaqiyatga erishish istagini kuchaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurslar va seminarlar o'tkazish o'qituvchilarni yanada samarali faoliyat yuritishga undaydi. O'qituvchilar o'z kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlash uchun pedagogik ko'nikmalarini chuqur o'rganish va doimiy ravishda rivojlantirishlari lozim. Maqolada taqdim etilgan tavsiyalar o'qituvchilarning professional o'sishi va ta'limda yuqori natijalarga erishishlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimi o'qituvchilari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda so'zlagan nutqi. 2019.08.23.
2. Shuhratov, S. Pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari. Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti. 2021-yil
3. Xudoyberdiyeva, M. Boshlang'ich ta'limda kasbiy identifikatsiya jarayonlari. Toshkent: Fan va texnologiyalar. 2019-yil
4. World Bank Report. Teacher Professional Development in Early Education. Washington, D.C.: World Bank Group. 2021
5. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. Инновационный курс. – Казань: Изд-во КГУ, 1996. – 566 с.
6. Abdusamiyev D.A. "Xalqaro baholash dasturlari asosida o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini tashxis etish" / "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 11.
7. Abdusamiyev D.A. Developing Dynamics of Teacher's Professional Identity / Jurnal ISO: Jurnal Ilmu Sosial, Politik dan Humaniora Vol: 4, No 2, 2024, Page: 1-9, e-ISSN 2798-8260 <https://doi.org/10.53697/iso.v4i2.1902>
8. Abdusamiyev D.A. O'qituvchilar kasbiy salohiyatini oshirishda talis baholash dasturining pedagogik imkoniyatlari / "Ta'lim, fan va innovatsiya" ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 6-son, 2023-yil, ISSN 2181-8274.

9. Abdusamiyev D. Kasbiy deformatsiya va uni oldini olishning pedagogik imkoniyatlari. Monografiya. «Iste’dod ziyo press” nashriyoti, Namangan. 2024-yil, ISBN 978-9910-9272-9-4

10. Abdusamiyev D. Boshlang’ich sinf o’qituvchilari kasbiy identifikatsiyasining yoshga doir xususiyatlari. “XALQ TA’LIMI” O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali, 6-son. 2024-yil.